

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI  
VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Ilmiy ishlar va xalqaro  
aloqalar bo'yicha prorektor**

**R. Shirinova**

**2026-yil**



**23.00.06-“Davlat siyosati va boshqaruvi asoslari” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta‘limdan  
keyingi ta‘lim institutiga kirish imtihoni**

**DASTURI**

**Toshkent – 2026**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

**Tuzuvchilar:**

- A.Umarov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- A.Yuldashev – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, tarix fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

- V.Qo'chqorov – siyosiy fanlar doktori, professor
- M.Atamuratov – siyosiy fanlar doktori, dotsent

## KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur siyosiy-boshqaruv islohotlari, xalqimizning demokratik rivojlanish istagi, mintaqa va xalqaro maydonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning murakkabligi bugungi kunda siyosiy fanlar, boshqaruv sohalari va davlat siyosati mutaxassislari oldida yangi va muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur jarayonlarni ilmiy-metodologik jihatdan o‘rganish, ularni tizimli tahlil etish, amaliy dialog va boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish zaruriyati kundan-kunga ko‘rinib bormoqda.

Bugungi kunda “O‘zbekistan – 2030” strategiyasi doirasida belgilangan rivojlanish yo‘nalishlari, ya‘ni iqtisodiy o‘sish, raqamli transformatsiya, ijtimoiy himoya tizimlari, davlat boshqaruvi modernizatsiyasi, ekologik barqarorlik va qonun ustuvorligi, amalga oshirilayotgan primord odatiy hujjatga aylangan. Bu sharoitda, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, davlat siyosati va boshqaruvi sohasida chuqur nazariy bilimga ega bo‘lgan, amaliy boshqaruv va siyosiy texnologiyalarni tushunadigan, zamonaviy xavflar va imkoniyatlarni aniqlay oladigan mutaxassislarga ehtiyojni oshirmoqda.

Mutaxassislik bo‘yicha tayyorlanayotgan shaxslar nafaqat muayyan fan sohasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, balki ushbu bilimlarini mustahkamlash orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodni shakllantirishga, jamoat ehtiyojlarini anglab, davlat boshqaruvi jarayonlarida faol ishtirok etishga tayyor bo‘lishlari lozim. Bu esa ta‘lim yo‘nalishlari va ixtisosliklari muntazam ravishda takomillashtirilishini taqozo etadi.

Shu bois, “Davlat siyosati va boshqaruvi asoslari” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni dasturini shakllantirishda mazkur umumiy makro-politika konteksti, boshqaruvning yangicha shakllari va siyosiy jarayonlarning yangi bosqichi hamda tadqiqot yo‘nalishlari inobatga olindi. Bu dastur talabalar va tadqiqotchilarga davlat siyosatining mazmuni, boshqaruv shakllari va siyosiy texnologiyalarni o‘rganish asoslari, ularda ilmiy-amaliy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini beradi.

Mazkur dastur davlat siyosati va boshqaruvining nazariy asoslari, boshqaruv jarayonlari va mexanizmlarini chuqur o‘rganishga, davlat siyosati samaradorligi, strategik rejalashtirish, jamoatchilik fikrini hisobga olish, raqamli transformatsiya va boshqaruvda innovatsion yondashuvlarni tadqiq etishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, dastur siyosiy qarorlar qabul qilish, milliy rivojlanish strategiyalari, davlat dasturlari, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlari, ijtimoiy adolat hamda barqaror rivojlanishning siyosiy asoslarini tahlil qilish orqali boshqaruv tizimlarining samarador modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

## **I BO‘LIM. DAVLAT SIYOSATI**

### **Davlat siyosati tushunchasi**

Davlat siyosatining mohiyati, mazmuni va asosiy tamoyillari. “Davlat siyosati” tushunchasining keng va tor talqini. Davlat siyosati nazariyasining shakllanish bosqichlari va asosiy ilmiy maktablari. Davlat siyosatining maqsad, ustuvor yo‘nalish va natijadorlik ko‘rsatkichlari. Davlat siyosatining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy o‘lchovlari. Davlat siyosati va boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Davlat siyosatini shakllantirishda huquqiy va institutsional asoslar.

### **Davlat siyosatini shakllantirish jarayoni**

Davlat siyosatini shakllantirish bosqichlari: tashabbus, muammolarni aniqlash, siyosiy muhokama, qaror qabul qilish, ijro va baholash. Siyosat ishlab chiqishda siyosiy institutlar, manfaatlar guruhlari va jamoatchilikning roli. Siyosiy jarayon va davlat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir. Siyosiy qarorlarning turlari va ularni tayyorlash mexanizmlari. Davlat siyosatida ilmiy tahlil va ekspertiza institutlarining o‘rni.

### **Davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari**

Davlat siyosatini amalga oshirish usullari: ma‘muriy, iqtisodiy, huquqiy, kommunikativ va motivatsion mexanizmlar. Siyosiy qarorlarni ijro etishda ijroiya hokimiyat, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi. Siyosatni amalga oshirishda samaradorlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillari. Davlat siyosatini muvofiqlashtirishda strategik boshqaruv, davlat dasturlari va milliy rivojlanish strategiyalarining ahamiyati.

### **Davlat siyosatini monitoring qilish va baholash**

Davlat siyosati samaradorligini monitoring qilish tizimi. Baholash mezonlari: natijadorlik, ta‘sirchanlik, resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy adolat, raqamli boshqaruv ko‘rsatkichlari. Monitoringda davlat va nodavlat tashkilotlarning o‘rni. Davlat siyosatining tahliliy baholash vositalari: indikatorlar tizimi, reytinglar, xalqaro indekslar va “impact assessment” yondashuvlari.

### **Davlat siyosati va barqaror rivojlanish**

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va uning davlat siyosatidagi o‘rni. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va O‘zbekistonning milliy strategiyalarida ularning integratsiyasi. Ijtimoiy adolat, gender tengligi, ekologik xavfsizlik va innovatsion rivojlanish tamoyillarining davlat siyosatida ifodalanishi. Barqarorlik va islohotlar samaradorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik.

### **Davlat siyosati va raqamli transformatsiya**

Raqamli davlat konsepsiyasi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida siyosiy boshqaruvning yangi yo‘nalishlari. Davlat siyosatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash: ochiq ma‘lumotlar, sun‘iy intellekt, big data, elektron hukumat va elektron xizmatlar. Raqamli boshqaruvning siyosiy va ijtimoiy oqibatlari. Kiberxavfsizlik, ma‘lumotlar suvereniteti va fuqarolarning ishonchini mustahkamlash masalalari.

### **Davlat siyosati samaradorligi va innovatsion boshqaruv**

Samaradorlik tushunchasi va uni o‘lchash mezonlari. Davlat siyosatida natijador boshqaruv (result-based management) tamoyillari. Innovatsion boshqaruv modellarining joriy etilishi: “smart governance”, “open government”, “governance by data”. O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyotda davlat siyosatini modernizatsiya qilish tendensiyalari.

## **II BO‘LIM. DAVLAT BOSHQARUVI**

### **Davlat boshqaruvi nazariyasi va mohiyati**

Davlat boshqaruvi bu davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish, ijtimoiy hayotni muvofiqlashtirish va davlat siyosatini amalga oshirishning ilmiy asoslangan tizimidir. U falsafiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tamoyillarni o‘zida mujassam etadi. Davlat boshqaruvi nazariyasi “public administration”, “governance” va “public management” konsepsiyalari bilan uyg‘un rivojlanmoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvida natijadorlik, qonuniylik, adolat va innovatsion yondashuv muhim tamoyillar sifatida qaraladi.

### **Davlat boshqaruvi tizimi va strukturasi**

Davlat boshqaruvi tizimi markaziy va hududiy organlarning o‘zaro aloqadorligi, vakolatlar taqsimoti va vertikal-horizantal integratsiyani o‘z ichiga oladi. Parlament, hukumat, vazirliklar, mahalliy hokimliklar va mustaqil regulyatorlarning boshqaruvdagi o‘rni aniqlanadi. Davlat xizmatini modernizatsiya qilish, apparatni optimallashtirish va xizmatlar samaradorligini oshirish davlat boshqaruvi tizimining strategik yo‘nalishlaridan biridir.

### **Davlat boshqaruvi shakllari va usullari**

Davlat boshqaruvi jarayonida ma‘muriy, iqtisodiy, huquqiy, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik usullar qo‘llaniladi. Qaror qabul qilishning ilmiy asoslangan mexanizmlari, boshqaruv sikli va strategik rejalashtirish elementlari boshqaruv sifatini belgilaydi. Risklarni tahlil qilish, prognozlash va qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini baholash boshqaruvning zamonaviy texnologiyalari hisoblanadi.

### **Davlat xizmati va kadrlar siyosati**

Davlat xizmatining asosiy tamoyillari meritokratiya, halollik, xolislik va javobgarlik. Kompetensiya asosida kadrlar tanlash va ularni baholash tizimi samarali boshqaruvning poydevoridir. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, “Open Recruitment” va “E-Assessment” tizimlari professional boshqaruv elitasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro tajribada (OECD, UNDP, EU) kadrlar siyosatida raqamli kompetensiyalar va boshqaruv etikasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

### **Davlat boshqaruvida strategik rejalashtirish**

Strategik rejalashtirish davlat siyosati va boshqaruvini uyg‘unlashtiruvchi markaziy jarayondir. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, tarmoq dasturlari va hududiy rivojlanish rejalari orqali davlat boshqaruvi tizimli natijadorlikka yo‘naltirilmoqda. “Evidence-Based Policy” va “Result-Oriented Management” tamoyillari asosida qaror qabul qilish davlat boshqaruvida ilmiylik va aniqlikni kuchaytiradi.

### **Davlat boshqaruvida innovatsion va raqamli yondashuvlar**

“Smart Governance” va “Open Data” konsepsiyalari boshqaruv samaradorligini oshiruvchi global tendensiyadir. O‘zbekistonning “Raqamli hukumat” platformasi, ma‘lumotlar almashinuvi (XIS, OneID, reestr.uz) tizimlari, Big Data va AI texnologiyalarining integratsiyasi davlat boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli boshqaruv nafaqat xizmat ko‘rsatish, balki siyosiy qaror qabul qilishning tezligi va aniqligini ham oshiradi.

## **Davlat boshqaruvida nazorat, monitoring va javobgarlik**

Davlat boshqaruvida parlament, Oliy nazorat palatasi, OAV va jamoatchilik nazorati mexanizmlari bir butun tizim sifatida qaraladi. Hisobdorlik va shaffoflik boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Korrupsiyaga qarshi kurash, etik standartlar va fuqarolik ishonchini mustahkamlovchi mexanizmlar boshqaruvning siyosiy legitimligini oshiradi.

## **Davlat boshqaruvida xalqaro tajriba**

Rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya) tajribasi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishda oʻrnak sifatida oʻrganiladi. “Good Governance” va “New Public Management” yondashuvlari Oʻzbekistonning milliy modelida strategik rejalashtirish, ochiqlik, hisobdorlik, va raqamli transformatsiya jarayonlarini mustahkamlamoqda. Oʻzbekiston tajribasining oʻziga xos jihati davlat va jamiyat oʻrtasida hamkorlik, ijtimoiy sheriklik va fuqarolik ishtirokini kengaytirishdir.

### 23.00.06 - “Davlat siyosati va boshqaruvi asoslari” ixtisosligi bo‘yicha namunaviy savollar

1. Davlat siyosati tushunchasi va uning jamiyatdagi o‘rni.
2. Davlat siyosatining asosiy tamoyillari va maqsadlari.
3. Davlat siyosatining nazariy maktablari va paradigmalari.
4. Davlat siyosatining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘lchovlari.
5. Davlat siyosati va boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
6. Davlat siyosatini shakllantirish bosqichlari va mexanizmlari.
7. Davlat siyosatida manfaatlar muvozanati va siyosiy konsensus.
8. Davlat siyosati samaradorligini baholash mezonlari.
9. Siyosiy jarayonlarning davlat siyosatini amalga oshirishdagi roli.
10. Davlat siyosatida qaror qabul qilish jarayoni va ishtirokchilar.
11. Davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining o‘zaro bog‘liqligi.
12. Davlat siyosatining ijtimoiy adolatni ta‘minlashdagi ahamiyati.
13. Jamoatchilik fikrini o‘rganish va hisobga olish mexanizmlari.
14. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat siyosatidagi o‘rni.
15. Davlat siyosatida jamoaviy manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlash.
16. Davlat siyosatida ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari.
17. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning turlari.
18. Davlat siyosatida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari.
19. Davlat siyosati va korrupsiyaga qarshi kurashning o‘zaro bog‘liqligi.
20. Davlat siyosati va etik boshqaruvning asosiy tamoyillari.
21. Davlat siyosatida strategik rejalashtirishning mohiyati.
22. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari.
23. Strategik qarorlar qabul qilishda risklarni baholash usullari.
24. Milliy rivojlanish strategiyalarining siyosiy asoslari.
25. Davlat dasturlari va ularning amalga oshirish mexanizmlari.
26. Siyosiy rejalashtirish va siyosiy prognozlash o‘rtasidagi farq.
27. Strategik boshqaruv va natijalarga asoslangan yondashuv (RBM).
28. Milliy strategiyalar samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari.
29. Davlat siyosatini amalga oshirishda tahliliy axborot tizimlarining roli.
30. Siyosiy qarorlar sifatini oshirishda ilmiy ekspertizaning o‘rni.
31. Davlat boshqaruvi tushunchasi va asosiy funksiyalari.
32. Davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati o‘rtasidagi farq.
33. Davlat boshqaruvi tizimi: markaziy va mahalliy darajalar.
34. Davlat boshqaruvi apparati va institutsional asoslari.
35. Boshqaruv tamoyillari: qonuniylik, samaradorlik, subsidiarlik.
36. An‘anaviy va innovatsion boshqaruv modellari.
37. Boshqaruvda gorizontal va vertikal muvofiqlashtirish mexanizmlari.
38. Davlat boshqaruvida monitoring va nazorat tizimining o‘rni.
39. Davlat boshqaruvida javobgarlik va shaffoflik mexanizmlari.
40. Davlat boshqaruvi va siyosiy legitimlikning o‘zaro aloqasi.
41. Davlat xizmati tizimining nazariy va huquqiy asoslari.
42. Davlat xizmatining asosiy prinsiplari: meritokratiya, xolislik, javobgarlik.
43. Kadrlar siyosatining strategik boshqaruvdagi ahamiyati.
44. Davlat xizmatchilarining kompetensiya modeli.

45. Davlat xizmatchilarini baholash va malakasini oshirish tizimi.
46. Professional davlat xizmati va xalqaro standartlar (OECD, UNDP).
47. Raqamli boshqaruv sharoitida davlat xizmatining transformatsiyasi.
48. Davlat xizmatida etik me'yorlar va korrupsiyaga qarshi siyosat.
49. Kadrlar boshqaruvida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o'rni.
50. Raqamli davlat konsepsiyasi va uning siyosiy mazmuni.
51. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining boshqaruvga ta'siri.
52. Elektron hukumat (e-Government) tizimining tuzilishi va afzalliklari.
53. Ochiq ma'lumotlar (Open Data) siyosatining tamoyillari.
54. Davlat siyosatida sun'iy intellekt va Big Data qo'llanilishi.
55. Raqamli transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlik masalalari.
56. Davlat siyosatida raqamli etik tamoyillar va fuqarolik ishonchi.
57. Innovatsion boshqaruvning xalqaro modellarini tahlil qiling.
58. "Smart Governance" va "Good Governance" o'rtasidagi farq.
59. Davlat siyosati va boshqaruvida barqaror rivojlanishning siyosiy asoslari.

## FOYDALANILADIGAN DARSLIKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022-yil 8-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni / O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №1. 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018-y., 07/18/3775/1313-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024-yildagi PQ-358-son – Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018-yildagi O‘RQ-474-son – Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun
8. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. 2019-yil 25-iyun.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son – “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son – 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
11. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son – O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
12. “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 9-sentabrdagi 180 (6874)-soni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №6. 2017.
14. “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430-son Farmoni. – T.: 2018-yil 4-may.
15. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (27.05.2019).
16. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga

bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 491 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild, – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom, – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

21. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom, – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 396 b.

22. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, – T.: O‘zbekiston, 2020. – 456 b.

23. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi, 2021. – 184 b.

24. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

25. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. – 464 bet.

26. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi 2023-yil 19-sentyabr.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi videomurojaati 2021-yil 21-sentyabr.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 2020-yil 23-sentyabr.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi 2017-yil 19-sentyabr.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29-dekabr 2020-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 28-dekabr 2018-yil

3. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma‘ruzalaridan olingan fikrlar. - Toshkent: “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2019.

4. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. Crown.

5. Bovens, M., Schillemans, T., & ‘t Hart, P. (2014). Autonomy and accountability of public organizations. Palgrave.

6. Bouckaert, G., & Halligan, J. (2008). Managing performance: International comparisons. Routledge.

7. Dunn, W. N. (2018). Public policy analysis: An integrated approach (6th ed.). Routledge.

8. Eubanks, V. (2018). *Automating inequality: How high-tech tools profile, police, and punish the poor*. St. Martin's Press.
9. Floridi, L. (2019). *The logic of information: A theory of philosophy as conceptual design*. Oxford University Press.
10. Fukuyama, F. (2014). *Political order and political decay*. Farrar, Straus and Giroux.
11. Kingdon, J. W. (2011). *Agendas, alternatives, and public policies* (Updated ed.). Longman.
12. Peters, B. G. (2021). *The politics of bureaucracy* (7th ed.). Routledge.
13. Pollitt, C., & Bouckaert, G. (2017). *Public management reform* (4th ed.). Oxford University Press.
14. Sabatier, P. A., & Weible, C. M. (Eds.). (2014). *Theories of the policy process* (3rd ed.). Westview Press.
15. World Bank. (2022). *GovTech maturity index: The state of public sector digital transformation*. World Bank.
16. Andrews, M., Pritchett, L., & Woolcock, M. (2017). *Building state capability*. Oxford University Press.
17. Bovens, M., Goodin, R. E., & Schillemans, T. (Eds.). (2014). *The Oxford handbook of public accountability*. Oxford University Press.
18. Bryson, J. M. (2018). *Strategic planning for public and nonprofit organizations* (5th ed.). Jossey-Bass.
19. Dunleavy, P., & Margetts, H. (2015). *Designing digital government*. Oxford University Press.
20. Bovaird, T., & Löffler, E. (2016). *Public management and governance* (3rd ed.). Routledge.
21. Peters, B. G. (2015). *Advanced introduction to public policy*. Edward Elgar.
22. Rhodes, R. A. W. (2012). *The Oxford handbook of political leadership*. Oxford University Press.
23. Rose-Ackerman, S., & Palifka, B. J. (2016). *Corruption and government: Causes, consequences, and reform* (2nd ed.). Cambridge University Press.
24. Scott, W. R. (2014). *Institutions and organizations* (4th ed.). Sage.
25. Stone, D. (2012). *Policy paradox: The art of political decision making* (3rd ed.). W. W. Norton.
26. Sunstein, C. R. (2014). *Simpler: The future of government*. Simon & Schuster.
27. Cairney, P. (2020). *Understanding public policy* (2nd ed.). Red Globe Press.
28. Bardach, E., & Patashnik, E. (2020). *A practical guide for policy analysis* (6th ed.). CQ Press.
29. Howlett, M., Ramesh, M., & Perl, A. (2020). *Studying public policy* (4th ed.). Oxford University Press.
30. Kettunen, P., & Kallio, J. (2021). *Public sector digital transformation*. Springer.
31. Open Government Partnership. (2021). *The skeptical reformer's guide to open government*. OGP.
32. UNDP. (2021). *Anti-corruption for development effectiveness*. UNDP.
33. Weimer, D. L., & Vining, A. R. (2017). *Policy analysis: Concepts and practice* (6th ed.). Routledge.
34. OECD. (2023). *Government at a glance 2023*. OECD Publishing.

35. Saltelli, A., & Di Fiore, M. (Eds.). (2023). The politics of modelling: Numbers between science and policy. Oxford University Press.
36. Transparency International. (2024). Corruption perceptions index 2024. TI.
37. UN DESA. (2024). United Nations e-government survey 2024: The future of digital government. United Nations.

**Elektron ta'lim resurslari:**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.yuz.uz>
4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
5. <https://president.uz>
6. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
7. [http:// www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
8. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
9. [www.parlament.gov.uz](http://www.parlament.gov.uz).